

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY va O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“HIND – ORIY TILSHUNOSLIGIGA KIRISH”

MAXSUS FANINIG MAGISTRATURA I KURS I SEMESTRI UCHUN

MA'RUZA MATNI.

Soatlar hajmi
Ma'ruza – 43 s.
Reyting – 3 s.

Tuzuvchi- prof. Shomatov O.N.

Taqrizchi – dots. Begizova X.B.

TOSHKENT 2003

SO'Z BOSHI.

Magistratura darajasida tahsil olayotgan hindshunos talabalarning ushbu sohaga taalluqli dastlabki ilmiy erishuvlar va muammolar tizimi bilan muttasil va tadrijiy ravishda tanishtirish mazkur kursning asosiy maqsadidir.

Ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim darslari mobaynida ushbu fannig asosiy tamoyillari, nazariyalari va yo'nalishlariga mufassal tavsif berilishi ushbu kursning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari talabalarga asosiy hind-oriy tilshunosligiga oid maxsus atamalar va realiyalar bilan foydalanish uchun eng kerakli ko'nikmalarni o'rgatishining ahamiyatli ekanligi hamda uning uchun talabalarni tipologik va geneologik tahlilga oid va tegishli atamalar bilan chuqur ravishda tanishtirishni ham mo'ljallab keladi.

Mazkur sabablardan kelib chiqqan holda nazorat turi sifatida seminarlardan tashqari yozma ish tavsiya qilinadi.

Soatlar taqsimoti: ma'ruza 43 soat, reyting 3 soat, vaholanki, qolgan ma'ruza soatlari, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim darslari boshqa o'qituvchilar tomonidan bajariladi.

BIRINCHI MA'RUZA.

MA'RUZA REJASI:

- 1.Fan maqsadi, vazifalari, mazmuni va mohiyati.**
- 2. Hind-oriy tillar tushunchasi.**
- 3. Hind-oriy tillarining kelib chiqishi muammosi.**
- 4.Hind-oriy tillarining Hind-ovrupo tillar oilasi ko'lamidagi tutgan o'rnining tarixiy tavsifi.**

TAYANCH IBORALAR.

Hind –ovrupo	aorya	areal
Sindhu	aerya	jug'rofiy-xududiy
Hindu	tadrijiy	migratsiya
Indu	differentatsiya	'xatlar arxivi'
Oriy	oriy-yunon-arman	kassatlar
	Rigveda	Avesto

Ushbu fan ‘Janubiy Osiyo tillari’ umumiy mutaxassisligini o‘rganib egallash uchun etakchi ilmiy-nazariy asos sifatida belgilanib shu maqsadga ko‘ra magistratura darajasida tanlov fani tariqasida o‘qitiladi.

Mazkur fanning asosiy vazifalari talabalarni, birinchidan, ushbu mintaqada tashkil topib rivojlanib kelayotgan hind-oriy tillarining kelib chiqishi va taraqqiyotining eng muhim bosqichlari bilan tanishtirishdan iborat.

Ikkinchidan, ushbu tillarning rivojlanishida mintaqadagi ijtimoiy, diniy, tarixiy va madaniy sharoitlarini ta‘minlab keluvchi muhitni ham til jarayonlari bilan bo‘g‘lagan holda ushbu muhitning ahamiyatiga ham katta – diqqat - e‘tibor beriladi.

Uchinchidan esa, ushbu mavzularga umumiy tavsif berish bilan birga, ayrim adabiy tillardan hindiy va urdu tillarining konkret faktlariga tayanib ularni umumiy manzara ko‘lamidagi o‘ynagan ro‘liga ham oydinlik kiritadi.

Yuqoridagi vazifalar ushbu fanning mazmuniy tarkibini belgilab hind – oriy tillarining taraqqiyotidagi turli lingvistik va sotsiolingvistik omillarning ta‘sirini ham bayon qilishga qaratilgan.

Demak, ushbu ma‘lumotlarga tayangan holda taqdim etiladigan fanning mohiyati talabalarga ‘Hind tilshunosligi’ va ‘Hind filologiyasi’ kabi umumiy yo‘nalishlar hamda ‘Hind tillar tarixiy grammatikasi’ va ‘Hind tillar fonologiyasi’ kabi maxsus fanlarni chuqur o‘zlashtirish yo‘lida eng yangi ilmiy nazariyalar va tamoyillardan tashkil topgan va nihoyatda umumlashtirilgan shakldagi manzaralardan ogoh etishdan iborat bo‘ladi.

‘Hind – oriy tillar’ tushinchasiga kelganda, ushbu tushunchaning birinchi qismi qadimgi Hindistonning asl nomi ‘Sindhu’ dan kelib chiqadi. Chunonchi, o‘sha davrda Hindistonga bevosita qo‘shni bo‘lgan eronliklar va qolaversa yunonlar bu so‘zni ‘hindu’ va ‘indu’ deb talaffuz qilganlari natijasida ‘hind’ so‘zi paydo bo‘ladi. ‘Oriy’ so‘zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, qadimgi hind va eron tillaridagi yozma manbalarda ‘aarya’, ‘aerya’ imlosida berilgan bo‘lib hind-ovrupo negizli Hind va Eronda yashovchi qadimgi qabilalarning etnik nomi sifatida tan olinib, ilmiy muomalaga kiritilgan atama deb ta‘riflanadi. Qo‘shilgan holda esa bu ikkala so‘z Hind diyoridagi qadimgi oriy qabilalari deb tushuniladi.

Bundan Hindistinning qadimgi nomi ‘aaryavartaa’ kelib chiqqanligi ham aniqlanadi’ ma‘nosi ‘oriylar o‘lkasi, yeri, eli’.

Endi ushbu qo‘shma atama asosida tashkil topgan ‘hind-oriy tillar’ xususida so‘z yuritganimizda, ularning o‘ziga xos mavqesi avvalambor, hind-ovrupo tillar oilasi bilan bevosita bo‘g‘langanligini tilga olish lozim. Bu oila o‘z navbatida jahon tillar tizimi ko‘lamida eng yirik va eng nufuzli zamonaviy tillarni, jumladan, ingliz, ispan, fransuz, rus, nemis hamda so‘zlovchilar soni jihatidan eng ko‘p sonli hindiy, urdu va bengal tillar singarilarni o‘z ichiga oladigan til oilalaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, bu oila ilmiy jihatdan eng chuqur va atroflicha o‘rganilgan va ko‘pchilik

tilshunoslik nazariyalari yo'nalishlariga sababchi bo'lgan bittalik deb tan olinadi. Umuman olganda, hozirgi lingvistika fani asosan hind-ovrupo tillarini tadqiq etish jarayonida shakllanib kelgan fan sohasi bo'lib gavdalangan.

Ushbu til oilasining nomidanoq ko'rinib turganidek, uning tarkibidagi tillarning aksariyati Ovrupoda paydo bo'lib, rivoj topib shakllangan. Vaholanki, ushbu til sohiblarining ajdodlari yashagan o'lkalar turli tahminlarga ko'ra Ovrupo va Osiyo xududlaridagi o'lkalardir. Eng yangi so'ngi qiyoslarga asosan bular Kichik Osiyo va Kavkaz atroflarida rivojlanib kelgan ota tillar bo'lmish hind-ovrupo shevalari zahirida meloddan avvalgi 2-3 ming yilliklar mobaynida tadrijiy differentsiatsiya (ajralib chiqish) jarayonida bir necha til jamoalariga bo'lina boshlagan edi. Jumladan, boshida ikki yirik areal (mintaqa) vujudga keladi, bularni A areali va B areali deyiladi. 'A' arealiga anatoliya, tozar hamda ital-kelt –illiriya tillar birliklari mansub bo'lib, 'B' arealiga esa 'german-baltik-slavyan' hamda 'oriy=yunon-arman' birliklari kiradi. Bularning barchasi bosqichma-bosqich ravishda pirovardida beshinchi bosqich mahallida beshta yirik til birlashmalariga bo'linib ketadi—oriy-yunon-arman, baltik-slavyan-german, ital-kelt, tozar va anatoliya birlashmalariga jug'rofiy-hududiy jihatdan bu hodisalar migratsiya (ko'chmanchilik) shaklida o'tib borib, ushbu birlashmalar yuqoridagi ko'rsatilgan Kichik Osiyo va Kavkaz hududlaridan tashqari hozirgi Eron, Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Markaziy Osiyo va Xitoyning Sintzyan viloyatidan tashqari Sharqiy, Markaziy va G'arbiy Ovrupolarni ham qamrab boradi.

Hind-oriy tillari esa birinchi birlashma tarkibidan m.a. 1200 yilda hozirgi Eronning Luriston viloyatidan yoyilgan kassitlar deb nomlanuvchi qadimgi qabila shaklida tarixda o'z izini qoldiraveradi. Ushbu qabilaning o'sha davrdagi so'zlashgan tilining namunalari 'xetlar arxivi' degan arxeologik qazilmalardan topilgan ba'zi bir matnlardan tiklanib kelinadi. Ayni paytda hind-oriylar ushbu til oilasining hind-eron guruhini keyinchalikda tashkil etuvchi qadimgi mushtaraklik tusini olgan holda, ushbu mushtaraklikning mifologik, diniy, madaniy va til qoldiqlari umumiy xudolar panteoni, o't-olovga sig'inishi va ko'chmanchilik holatida chorvachilik bilanshug'ullanuvchi qabilalar hayotida o'z aksini topadi.

Bulardan keyingi yozma manbalar m.a. birinchi ming yillikda yaratilgan 'Rigveda' va 'Avesto' asarlarida bu mushtaraklik saqlanib qolmasdan hindlar va eronliklar etnik guruhlariga ajralib ketganligiga tegishli dalillar kuzatiladi. Shunda ham ikkala asar orasidagi til tafovutlari ikki turli shevalarga xos ikki alohida turgan guruhlarimon tuyuladi. Shu davrdan tortib bu qardosh guruhlar tarkibida turli-tuman til jarayonlari bo'lak holda rivoj topib keladi va hozirgi davrga kelganda ham bular orasidagi azaliy mushtaraklik asoratlari yuqolib ketmagan. Natijada hozirgi hind-oriy tillari Eron va keyinchalikda rivojlanib kelgan dard tillar bilan birga hind – eron tillar guruhini tashkil etadilar. Bu guruhdan tashqari mazkur til oilasining tarkibiy

qismlari sifatida german, italiy (roman), kelt va slovyan guruhlar ham mavjud, vaholanki yunon va arman tillari o'ziga xos mavqeda turgan alban va boltiq tillarga o'xshab bu tizimda alohidan o'rin olgan tillar hisoblanadi.

Shubhasiz hozirgi vaziyatda hind-oriy tilm sohiblari bu tizim ko'lamida jug'rofiy va etnik nuqtai nazardan Osiyo tillariga qarab, son jihatidan esa ingliz tili bilan bir qatorda ko'p so'zlovchilarga ega bo'lgan jahon tillari sohiblari orasida ko'rinarli darajada turadi. Yunesko bergan ma'lumotlarga ko'ra, hindiy va urdu (300 milliondan ortiq), Bengal tili (300 millionga yaqin), panjobiy, marathilar (100 milliongacha) til sohiblariga ega bo'lgan til qatoridadir.

SAVOLLAR:

- 1. HIND-OVRUPO TIL OILASI XUSUSIDA IZOH BERING.**
- 2. 'HIND' SO'ZINING KELIB CHIQISHI HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?**
- 3. 'ORIY' ATAMASI QAUSI MANBAGA BOG'LIQ?**
- 4. HIND-ORIY TILLAR GURUHI TARIXI HAQIDA IZOH BERING.**
- 5. SHU JARAYONDA ILK YOZMA YODGORLIKLAR HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?**

ADABIYOTLAR:

- 1.S.K.Chatrji, Vvedeniye v indoariyskoye yazikoznaniye, per. S angl. M., 1977.**
- 2. G.A.Zograf, Yaziki Yujnoy Azii, M., 1992, s. 5-35.**
- 3. T.Ya.Yelezarenkova, Rigveda, izbranniye gimni, per, kommentariy I vstup stat'i, M., 1972.**

4. O.N.Shomatov, Janubiy Osiyo tillariga kirish(kompyuterda terilgan),I bob.

IKKINCHI MA'RUZA.

REJA:

- 1. Hind – oriy tillarining hind diyorida yoyilishi va siyosiy shart sharoitlari.**
- 2. Qadimgi hind-oriy tillar davridagi madaniy, etnik,diniy, adabiy va til almashinuvi jarayonlari.**
- 3. No-oriy etnik foni xususidagi Negroid etnik guruhlariga oid ma'lumotlar.**

TAYANCH IBORALAR:

No oriy xalqlar	puja	guptalar davri
Dasyu	homa	Ajanta
Kentum	zarcho'va	Malaya
Satem	Mesopatamiya	Hind-Xitoy
Kelt	Krit-minoy	Fillipin
Shloka	tarixdan ilgarigi	Yangi Gvineya
Karma	negritoslar	Janubiy Baluchiston

Hind – oriy tillar tarixining ilk bosqichlarini aks ettiruvchi yozma manbalar siyrakligi tufayli ushbu til sohiblarinig Hind diyoriga kirib kelishi va u yerda yoyilib borishi tavsilotlari ko'pincha ikkilamchi va bilvosita manbalar orqali tiklanadi. Xususan, mahalliy no oriy xalqlar va qabilalar bo'lmish 'dasyu', ya'ni 'yovvoyilar' bilan ularning to'qnashuv va munosabatlari kam yoritilgan bo'lib, 'Rigveda' va keyingi 'Veda'larda uchraydigan havolalar negizida tasavvur qilinishi joiz bo'ladi.

Ikkinchi katta muammo bu oriylarning Hind tuprog'iga kirib kelish davri masalasi oldingi ma'ruzada ko'rsatilgan 'kassitlar' davridan so'ngi bosqich tariqasida anglanib keladi.

S.K. Chatrjiy ta'biriga ko'ra, qadimgi hind-ovrupo tillarining bo'linishi natijasida ikki yirik til oqimlarining tashkil topishi - 'kentum' va 'satem' guruhlarini bir-biridan ajratish bilan yakunlanadi.

Bu guruhlar yuz 'son sanog'ini' turlicha talaffuz etishga asoslangan german, kelt va italiya guruhleri birinchi shaklga hamda qolganlari yani, balt-slavyan va hind – eron guruhiga to'g'ri kelishi aniqlanadi (M-n, sanskritda yuz - 'shat', fors tilida 'sad', rus tilida 'sto', 'sotnya', yunon – lotin tillarida 'sent', hozirgi ingliz tilida 'hundred' kabi so'zlarda)

Qadimgi Hind-eron birligining uzoq davrgacha saqlanib qolishi haqida ikkala xalqning mushtarak she'riyati va jumladan, 'shloka' sakkiz ruknli vaznning qo'llanishi, xidolar nomlarining tovush tizimidagi yaqinligi, chunonchi, hindlarda 'deva' 'xudo ma'nosida' va eronlarda 'dev' ma'nosida 'asura' yoki 'axura' – 'ilohiy tirik kuch' ma'nosidagi tushunchalarda seziladi. Shunga o'xshash mushtarak tushuncha sifatida ilohiy sharbat 'Soma' 'Rigveda'da uchragan holda, 'Avesto'da 'xaoma' shaklida qayd etilgan.

Oriylar hind tuprog'ga kirib kelganidan so'ng ularning hayotida yangi tarixiy davr boshlanadi, buni 'Vedalar davri' deb atashadi, chunki bu asar nafaqat filologiya sohasiga tegishli bo'lib, balki diniy, falsafiy, madaniy, maishiy, iqtisodiy va boshqa barcha sohalarga oid ma'limotlarga boy bo'lib keladi. Til va adabiyot jihatidan yondashganda bu hodisa hind-oriy tillari va adabiyotining boshlanishini belgilovchi belgilovchi dastlabki 'vedik' davrning kirib kelishini ko'rsatadi.

Ammo mutaxassislar fikricha, hind sivilizatsiyasi poydevoriga salmoqli ulush qo'shganlar oriylar emas, balki ulardan ilgari u yerda yashab kelgan no oriy xalqlardir. Jumladan, diniy aqidalar va madaniy an'analar, qolaversa, qadimgi afsona va rivoyatlar aslida no oriy kelib chiqishga egadir. Xususan, 'karma' va 'ruhning bir tanadan ikkinchi tanaga o'tishi', yoga amaliyotlari, Shiva , Devi va Vishnu obrazlarida mujassam bo'lgan ma'budlar tushunchalari atrofida markazlashgan diniy va falsafiy g'oyalar , **pu:ja:** deb nomlangan hindu marosimi (bu marosim Vedalardagi 'xoma' yoki 'xaoma' marosimiga muqobildir) bularning barchasi hinduizm va hindu mafkurasida joylashgan holda kelib chiqishi no oriy tuyuladi. Moddiy madaniyat xususida esa, gurunch, tamarind va kakos kabi o'simliklarni hindularning maishiy kindalik hayotida katta o'rin topgan betel barglari, ko'pchilik qadimgi irim-sirimlar, kasb hunarmandchilikka tegishli hodisalar, dhotiylar va sariylar kabi hindlarning o'ziga xos kiyim-kechaklari, Hindistonning ko'pchilik o'lkalarida keng tarqalgan surik va kurkuma (zarcho'va) kabi moddalarni ishlatib bajariladigan hindu nikoh marosimlari kabilar ham no oriy tub yashovchilardan qoldirgan merosidan deb taniladi.

Shunda asosiy ta'sir o'tkazuvchi omil deb olimlar aksariyatan 'oriylarning xuruj qikuvchi tamoyili' ga alohida urg'u berib, bu tamoyil aynan dastlabki ilk qadamlarda ularni mahalliy nooriy xalqlar va qabilalar tomonidan qarshi olish siyosatini ham shakllantirish jarayonida o'ziga xos rol o'ynaydi. Oriylar ularga nisbatan ijtimoiy va etnik ma'noda ancha jipslashgan va tashkil etilgan hamda harbiy ishlarda ustun keluvchi kuch bo'lgani tufayli tub xalqlar ularga tobe holatga kirib, siyosiy jihatdan va qolaversa iqtisodiy tomondan ham bo'ysunishga majbur bo'ladilar. Xattoki o'qimishli shaxslar ham oriylar o'rnatgan shart-sharoitlarga ko'nika boshlaydilar.

Shu asnoda alohida muhim muammo bo'lib kelgan masala hind sivilizatsiyasini kim yaratgan degan savolga turlicha echimlar namoyon bo'ladi. Jumladan, shunday bir fikr borki, Hind sivilizatsiyasini bu diyorga tashqaridan oriy xalqlari olib kelishgan. Ammo bunga qarshi dalil bo'lib, Mohenjo-Daro va Xarappa sivilizatsiyalari ularning Hindga kirib kelishidan ancha ilgari barpo bo'lganligi va uning aloqadorligi Mesopatamiya va qolaversa Yunon sivilizatsiyasidan avvalgi Krit-Minoy sivilizatsiyasi davrida mavjudligi jiddiy ravishda e'tiroz shaklida tan olinadi.

Qolaversa, oriylar asosan ijtimoiy jihatdan jipslashgan bo'lsada, ammo turg'un mahalliy xalaqlarga nisbatan ancha quyi mavqeda bo'lganligi va xususan ko'chmanchi va podachilik bilan shug'ullanuvchi etnik guruhlar sifatida yuqori saviyadagi shahar sivilizatsiya sohiblari bo'lib chiqishi amri mahol edi.

Shuning uchun bunday qiyos asossiz bo'lib tuyular ekan, buni mantiqan qabul qilib bo'lmaydi.

Biroq boshqa bir fikrga ko'ra, oriylar o'z navbatida mahalliy diniy va madaniy jarayonlarga o'z xissalarini qo'shganlari albatta amalda bo'lishi ham mumkin edi. Jumladan, Vishnu, Shiva va boshqa xudolar haqida hind-eron xalqlariga mansub yozma adabiy yodgorliklarda hach qanday ishora kuzatilmaslgi bularning kelib chiqishi no ariy xalqlarga tegishli ekanligini ayon qiladi. Ikkinchidan, Ijtimoiy toifalar tizimining shakllanishida ham oriy elementlar o'z ulushini qoldirgan degan tahmin ham bor. Bunda yuqori tabaqalardan tashkil topgan brahmanlar va kshatriylar hamda qisman vayshiyalar oriy hijumkorlari vakillarini o'z ichiga olishi va natijada tuban tabaqalarni, ya'ni shudralarni mahalliy xalqlarning eng qashshoq va haqir jamoalardan kelib chiqqanligini alohida dalil tariqasida qabul etiladi.

Hind oriy tillarining Hind diyorida yoyilishi, shunday qilib, ikki butunlay turli har xil tubli kuchlar o'zaro chiqishuvi va hamkorligi hamda harbiy majorolar orqali muomala qilganligi voqelikka xos hodisaga aylanadi.

Shunda 'Rigveda' va boshqa 'Vedalar' yaratilishi muammosi ushbu masalasi ushbu muammoni to'g'ri talqin qilishda yordam berishi mumkin. Shunisi ayonki, ushbu asarlar tili asosan Panjob o'lkalarida tarqalgan bo'lib har xil sheva va lahjalarning turli tomonlari unda o'z aksini topganligi aniqlanadi.

Oriylar kirib kelishidan oldingi davrlarga nazar tashlasak, bu yerda noariy foni ya'ni muhiti degan masala ko'ndalang bo'lib qoladi. Arxeologik, antropologik va etnografik izlanishlarga asosan hind subkontinentiga Afrika tomonlaridan tarixdan ilgarigi (prehistoric) davrlarda negrlar va negritoslar qabilalarining dengiz bo'ylab Arabiston va Erondan o'tib, kelib qolishi va shu yerlarda Janubiy Hindiston o'lkalarida yoyilib, so'ngra qisman Hind-Xitoyda Birma (Myanmar) yo'llari bilan Indoneziya orollariga o'tib ketganligi xususida taxminlar qilingan. Andaman orollaridagi qadimgi qabilalarning (irqiy) yuz tuzilishlarida ushbu jarayonlarning asoratlari bor degan fikr ham mavjud. Ular xattoki, Fillipin va Yangi Gvineya orollarigacha yetib brogan. Ularning izlarini Janubiy Baluchiston hamda Dekan va janubiy Hindistonda topsa bo'ladi. Ya'ni irula, kadir, kurumba, paniyan va boshqa o'rmonda yashovchi qabilalarning yuz tuzilishlarida bular saqlanib qolgan. Qolaversa, Assam shtatida yashovchi Naga qabilalarida ham bunday belgilar mavjud. Negritoslar madaniyati olimlarning fikricha, paleolit va xattoki, eolit davriga mansubligidan ular dehqonchilik va chorvachilikni hali bilmas edilar, degan taxmin qilinadi.

Til masalasiga kelganda negritoslar avlodlari hozirda qo'shni tillardan oriy,dravid va avstraliya- osiyo tillari bilan qurama holdagi jargonlarda gaplashadilar. O'zlarining tub tili esa faqat Andaman tili sufatida bizgacha yetib kelgan deb taxmin qilinadi. Bu til o'sha nomdagi orollarda yashovchi xalqlar tili bo'lib, tillarning geneologik tasnigi ko'lamida o'ziga xos alohida o'ringa egadir.

Bularning etnik tipi haqida fikr yuritganda shunisi alohida diqqatga sazovorki, garchi o'rta asr ilk davrlariga oid Guptalar davriga to'g'ri keladigan Ajanta g'orlarida o'yilgan Freskalarda negritoslar tipi uzoq vaqtgacha saqlanib kelgan bo'lsa-da hozir hind subkontinentining qit'aviy qismida bu tip deyarli kuzatilmaydi.

Oriylar kirib kelgan paytda negritoslar Panjob va Hind-Ganga vohalarida mavjud bo'lmagani sababli oriy tillarida ularni atovchi maxsus etnonim kuzatilmaydi. Professor Chatrjiyning nazarida negritoslar tilidan saqlanib qolgan yakkayu yagona so'z bu Bengal tilidagi **ba:Dud** 'ko'rshapalak' so'zidir, bunga eski bengal tilida **ba:D-aD-i** so'zi muqobil bo'lgan bo'lsa kerakki, bunda, **-aDi** qo'shimchasi pleonastic ya'ni ortiqcha ma'noga ega suffiks bo'ladi. Bu so'z bilan andaman tilidagi **wo\t-da,wa\t-da, wo\t, wa:t** 'ko'rshapalak' degan so'zni solishtirsa bo'ladi. Bundan tashqari Malaye va Hind-Xitoyda yashovchi avstriya-osiyo qabilalar tilidagi **wet,met, wed, wa:t, wat** so'zlarini ham u bilan chog'ishtirish mumkin.

SAVOLLAR:

1. 'DASYU' TUSHUNCHASI ZAMIRIDA NIMA YOTADI?

2. ‘KENTUM’ va ‘SATEM’ GURUHLARI NIMANI BILDIRADI?
3. HIND va ERON XALQLARI QADIMDA QANDAY BELGILOVCHI ALOMATLARGA EGA BO’LGAN?
4. MESOPATAMIYA BILAN QANDAY ALOQALAR BO’LGAN?
5. ‘NEGRITOSLAR’ HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

ADABIYOTLAR:

- 1.S.K. Chatrjiy, Vvedeniyr v indoariyskoye yazikoznaniye, per. S angl., M., 1977
2. T.Ya. Yelizarenkova. Rigveda. Izbranniye gimni, per., kommentariy I vstupitel. Stat’ya, M., 1972.
- 3.O. N. Shomatov, Janubiy Osiyo tillariga kirish (kompyuterda terilgan, I bob).

Uchinchi ma’ruza.

REJA:

1. Hind-oriy qabilalarga qarshi kelgan avstroloidlar yoki nishadalar.
2. Ularning til jihatidan avstraliya-osiyo tillar oilasiga mansubligi muammosi.
3. Ushbu xalqlar madaniyatining hind diyoridagi asosiy o’zoqlari.
4. Ularga tegishli ba’zi taxmin va qiyoslar haqida.

TAYANCH IBORALAR:

**Protoavstroloidlar
nishada
Mikroneziya
Melaneziya**

**Mekong
Tibet-xitoy
ruh aylanishi
superstrat**

Polineziya
Khasi
Assam
kol
munda
santal
narikela

substrat
pronominal
burushaski
Mon-khmer
monosillabizm
kaori
Ganga

Negritoslardan so'ng kelgan xalqlar protoavstroloidlar ya'ni avstraliyaliksimonlar ajdodlari. Irqiy jihatdan bular o'rta yer dengizi irqiga tegishli hisoblanib, bularning antropologik qiyofasi uzun boshli, qora tanli va puchuq burunli tipdan iborat bo'lgan. Qadimgi oriylar bularni '**nisha:da**' deb atashgan. Ushbu xalqlarning ayrim vakillari dastavval Hindistonda o'rnashib olgach so'ngra o'z tillarini, diniy aqida va madaniyatlarini rivojlantirib janub va sharq tomon – Malaya, Fillipin va Indoneziya tomonlarga olib borib, u yerlardan Mikroneziya (Karolin, Marshall va boshqa orollar) hamda Melaneziya (Bismark arxipelagi, Solomon orollari, Santa Krus, Yangi Gebridlar, Yangi Kaledoniya, Fiji orollariga) ham olib yetkazadilar. So'ngra esa Polineziya (Samoa, Tonga, Kuk, Taiti, Tuamotu, Markiz, Yangi Zelandiya va Gavayya orollariga) ham olib boradilar.

Mazkur xududlarda yashovchilarning tillari umuman olganda hozir avstraliya-osiyo oilasining avstroneziya tarmog'ini tashkil etadilar.

Hind-xitoy hududlarida yoyilgan nishadlar hozirda mon, khmer, kampuchiya, cham hamda kamroq ma'lum bo'lgan stiyeng, banar, palaung va boshqa qabilalar va xalqlarni tashkil etuvchi etnik guruhlardir. Bunday guruhlardan biri Nikobar orollarida ham o'rnashib olgan edi.

Boshqalari esa, jumladan, khasi elatining ajdodlari Assam o'lkasiga kirib kelgan edi. Ammo bular ayni paytda asli mongoloid (mo'g'lsimon) bo'lib, avstraliya-osiyo tilini keyinchalik o'zlashtirib olgan bo'lishlari mumkin. Hindistonga kirib kelib bu yerda turg'un bo'lib qolgan 'nishad' qabilalar tarkibida hozirgi kol yoki munda xalqlari bo'lib, bular orasida santal, mundari, xo, korva, bhumij, kurku, sora yoki savara, gadaba va boshqalar ham mavjud.

Protoavstroloidlarning yana bir boshqa guruhi uzoq zamonlarda Avstraliya diyoriga kirib qolib, u yerdagi qora tanli tub aholiga asos slogan edilar. Birozdan so'ng yana boshqa guruh Shri Lankada panoh topib, hozir veddalar shaklida yashab kelmoqda.

Nishadlar ajdodlari aftidan kol, kxasi va mon-kxmer guruhlardan iborat bo'lgan holda o'z taraqqiyotining boshlang'ich bosqichida neolit tuzumiga

oid bo'lib, mis va temir toblashni Hindistonda o'rganib olganga o'xshaydilar. Ular dehqonchilikning ibtidoiy uslublari orqali tog' va tepaliklar etaklarida 'yer kovlaydigan cho'p'dan foydalanib (buning ma'nosini qadimgi **lak** so'zidan kelib chiqqan **lag, lang, ling** shakllar ifoda etadi).

Natijada o'sha turdagi yerlarda gurunch ekishni birinchi bo'lib ular o'rgandilar. Ularning tillarida mavjud ayrim so'zlarga ko'ra **na:rikela** 'kokos yong'og'i', **kadala** 'banan', **tashbula** 'betel', **guvaka** 'betel yong'oqchisi' va ehtimol **haridra** 'zarcho'va', **s'r.ngavera** 'imbir', sabzavotlardan **va:tingaNa** 'baqlajon' va **ala:bu** 'qovoq'larni ekib xosil qilishni ham ular boshlab bergan edilar. Garchi chorvadorlikdan bexabar bo'lgan bo'lsalar-da birinchi bo'lib fil va uy parrandalarini boqa boshlagan edilar.

Ulardan meros sifatida qolgan boshqa hodisalarga e'tibor bergan bo'lsak, Shimoliy Hindistonning ba'zi o'lkalarida yuritilgan so'z – hindiy tilida **kaori**, bengalchada **kuri**: 'ikki o'nlik', 'yigirma' degan hisoblash usuli avstraliya-osiyo xalqlaridan olib o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin. S. K. Chtrjiy fikriga ko'ra oy kunlari **tithi** asosida ancha kengroq hindlarda qo'llanilgan bo'lsada, aslida o'sha manbaga tegishli hodisa hisoblanadi.

Avstraliya-osiyoqliklarning haqiqatda qanday qilib Hindiston va boshqa yurtlarda yoyilish jarayonlari kechgani haqida ba'zibir gidronimlarning etimologiyasi (kelib chiqishi)dan o'rganilishi mumkin. Olimlar tahminicha, bularning yo'lida quloqch yoygan ilkan shimoliy hind daryolari yashash uchun juda qulay makon muhayyo qilganligidan daryolar nomlari, avvalombor Ganga ushbu tahminlarga ko'ra 'daryo', 'suv' ma'noli qadimgi avstraloid so'zining sanskritlashgan shakli bo'lib kelgan. Bunga qardosh shakl **thai(tai)** tilida (Hindixitoyda) **Khong** ko'rinishida kuzatiladi. M-n, **Me-khong** 'Mekong' (ma'nosi **Ma:N - Ganga**: ona - daryo). Qiyos qiling – tai tilidagi **Me'-na'm** 'ona suv' so'zi bilan. Ushbu so'zning o'zi Markaziy va Janubiy Xitoyda **tszyan** (kiyang), masalan **Yantszitszyan, Sitszyan** va Janubiy Xitoyning ko'pchilik daryo nomlarida (**Yutszyan, Unitszyan, Luntszyan, Beytszyan, Lotszyan, Xangtszyang va b.**) kuzatiladi. Shuni alihida qayd etib o'tish lozimki, qadimgi Xitoy tilida bu so'z '**gang**' tarzida talaffuz qilinar edi va shimoliy shevalarida '**chan**' (chiang) deb o'qilardi.

Vaholanki, bu so'zning asl ma'nosi hanuzgacha bengal tilida **ga:n'g** yoki **ga:n'** 'daryo', 'havza' shaklida saqlanib qolgan. Shrilankada ham uni daryo nomlari bilan uchratiladi.

Bu so'zning xitoy tiliga kirib kelishi aftidan Markaziy Xitoy ibtidoiy davrlarda Tibet- xitoy etnik guruhi bo'lmish tai yoki shan, syam va laolar tomonidan ishg'ol etilgan bo'lib kelganligidandir. Chunki xitoy tilida 'daryo' ma'nosida asl so'z bo'lib **xe (ho yoki Xo)** Shimoliy Xitoy so'zi bo'lib, qadimgi Xitoy tilida '**dva**' deb talaffuz etiladi. M-n, **Xuanxe**.

Ayni paytda, tai so'zi **khoNg** 'to'lqinli', 'jo'shqin' ga ma'nosi mansub etiladi. (Sanskritcha **khata**).

Mekong daryosining qadimgi Xitoy nomlaridan biri bo'lgan **Khiyang** o'sha **khoNg** dan fonetik uyg'unlashuv natijasida kelib chiqqan deb hisoblanadi. V'yetman tilida **khong** vaholanki, **khmer** tilida –**Tohle-Thom** '**buyuk daryo**' sanskritcha **mahanadi: (va kharanadi:)** v'yetnamliklar uni '**buyuk daryo**' **Song long** deb atashadi.

Avstroloidlar urf-odatları xususida shunisi qiziqki, ular o'lganlar qabrlari ustiga tosh yo xarsang o'rnatishardi. Bundan tashqari 'Mahabharata' da tilga olingan o'liklarni daraxtlarga dafn qilish ham ularga mansub deb hisoblanadi. Mutaxassislar ta'biricha, ularga xos bo'lgan insonning bir emas bir necha joni bo'lib, o'lgandan so'ng biri biron o'simlik, ikkinchisi hayvon tanasiga o'tib ketishi haqidagi hayollar brahminlarning nazariy tahminlariga qo'shilib, oriylarga ilgari ma'lim bo'lmagan 'ruh aylanishi' (transmigratsiya) tushunchasining shakllanishiga olib keldi.

Avstroloidlarning tillariga xos xususiyatlarning h.- oriy tillariga bo'lgan ta'siri to'g'risida fikr yuritganda, birinchilarning ommaviy ravishda ikkinchi xil tilni o'zlashtirish jarayoni substratning superstratga ta'siri shaklida anglanib, bu ta'sir oqibatidagi o'zgarishlar asosan tovush tizimi, sintaksis, frazeologiya va so'z boyligida yuz berishi joiz hisoblanadi. Jumladan, Himolay tog'larining etaklarida avstroloidlar shevalari tarqalib borganlarida vodiylarda yuritilayotgan magaxi va maytxili kabi oriy lahjalarga nisbatan substrat bo'lib kelgan edi. Undan tashqari, ular borgan sari o'sha yerlarda pirovardida yoyilib borgan Tibet-birmon shevalar bilan o'rin almashgan, chunki oxirgilar u yerlardan surib chiqargan. Natujada bularni pronominal (ya'ni nominallashtirilgan) shevalar deb atalgan. Negaki bularda kol tillari singari fe'l shakllari tarkibiga olmoshlar ham kiritiladi. Avstroloid tillarning ba'zi tarmoqlari Kashmir shimolidagi Xunza o'lkasiga kirib borib, burushaski (yoki burishsk) nomli til shakllanishiga substat xizmatini o'tagan edi. Bu til o'ziga xos mavqega ega bo'lib, na qo'shni, na uzoqdagi tillar bilan yaqinligi bo'lmagani uchun alohida til turi sifatida sanaladi.

Tipologik tomondan avstroloid tillarga tavsif berar ekanmiz, bularda o'zakka prefiks, siffiks va infikslar qo'shishdan iborat morfologiya usullari qo'llaniladi. Bu jihatdan ular hind-ovrupo tillaridan ancha uzoqlashgan holdadir. Bulardan ba'zilari, jumladan, Indoneziya tillarida ko'p bo'g'inli (polisillabik) tarkib shakllangan holda ichki fleksiya ishlatilmasa ham, ba'zi prefiks, suffiks va infikslar mavjud.

Boshqa turlari esa, jumladan, mant-khemer va khasilar qo'shni Xitoy-tibet lahjalar bilan iug'unlashib monosillabizm ya'ni bir bo'g'inlilik tusiga ega bo'lganlar.

Ammo hind-oriy va dravid tillardan farqli o'laroq avstraliya-osiyo tillarining yetakchi xususiyati ularda prefiks infikslar keng qo'llanishidan iboratdir.

Yana bir muhim muammo bu ushbu tillar sohiblarining Hind diyoriga kirgan davridir. Olimlar fikriga ko'ra bular meloddan avvalgi bir necha ming yilliklar ilgari, bir tomondan oriylar, va ikkinchi tomondan dravidlardan ilgari kelgan bo'lishlari kerak.

SAVOLLAR:

- 1. "PROTOAVSTROLOID" YOKI "AVSTROLOIDLAR" KIMLAR BO'LGAN?**
- 2. MIKRONEZIYA VA MALANEZIYA DEGAN YERLARDA KIMLAR YASHAGAN, ULARNING HINDISTONGA NIMA ALOQASI BOR ?**
- 3. KXASI QABILALARI HAQIDA NIMALARNI BILASIZ ?**
- 4. MUNDA TILLARI QANDAY KELIB CHIQISHGA EGA?**
- 5. USHBU TILLARDAGI QAYSI SO'ZLAR BOSHQA HIND TILLARIGA O'ZLASHGAN?**
- 6. "SUPERSTART" VA "SUBSTRAT" TUSHUNCHALARI HIND TILLARIDA QANDAY AKS ETTIRILADI ?**

ADABIYOTLAR:

1. Chatrjiy S.K. Vvedeniye v indoariyskoye yazikoznaniye, per. S angl., M., 1977

2. Zahar'in B.A. Vvedeniye v istoriyu yazika hindi, Mtu, M., 1978.

3. Zograf G. A. Yaziki Indii, Pakistana, Seylona i Nepala, M., 1960, str. 9-23.
5. Klimov G. A , Edel'man D. I. Yazik burushaski, M., 1970, str. 1-10
6. Alekseyev V. P. Antropologicheskiy sostav naseleniya drevney Indii – sb. Indiya v drevnosti, M., 1964.
7. Shomatov O.N. Janubiy Osiya tillariga kirish. (kompyuter electron darsligi sifatida).

TO'RTINCHI MA'RUZA.

REJA:

1. Hind-oriy xalqlariga qarshi tutuvchi yana bir yirik etnik guruh dravid qabilalari.
2. Bularga xos etnonimning kelib chiqishi muammosi.
3. Dravidlarning qadimiy madaniyati va adabiyotga xos muammolar.
4. Ushbu xalqlarning Mohenjo-Daro va Xarappa sivilizatsiyaga bo'lgan munosabati muammosi.
5. Janubiy Panjob va Sindh madaniyati tushunchasi.

TAYANCH IBORALAR:

Agglyutinativ	‘Toshqin rivoyati’
Shen- tamij	kirata
Protohind madaniyati	‘ghora’ so’zi
Braxmi alifbosi	sandal moyi
Dasa-dasyu	sangrama
Kichik Osiyo	dasya-xatya
grama	

Endi hind tuprog'ida yashovchi xalqlarning uchinchi yirik guruhi dravidlar xususida gapirganda, bular aftidan avstroloidlar so'ng yoki ular bilan bir mahalda shu yerlarga yetib kelib g'arb tomonlardan kirib kelgan degan taxmin qilinadi. O'z agglyutinativ tuzum tufayli bular oltoy va o'rol

tillariga o'xshagan bo'lsa-da, ammo so'z, shakl, o'zak, va iboralar jihatidan qaraganda o'zlariga hos mavqega egadirlar. Bularning asl vatani o'rta er dengizining sharqiy qirg'oqlari, shu jumladan , Kichik Osiyo(likiya) va Egit orollaridan Krit kabi o'lkalar sanaladi. Ularga mansub qadimgi etnonim **dramiza** yoki **dramila** bo'lib, hind-oriy talaffuzida **dravida** va **damila** hamda tamil xalqining o'z nomi **taniz** kabi shakllar vujudga keldi.S K. Chatrjiy bildirgan fikrga ko'ra qadimgi Likiya xalqlari o'zlarini **Trmmili** deb atagan bo'lsa, ularning ajdodlari bo'lmish Krit orolining axolisi Gerodot ma'lumotlariga tayangan holda **Termilai** deb o'zlarini atashardilar.

Dravidlar yaratgan adabiyotlar masalasida shuni qayd qilish lozimki, garchi ularning eng qadimgi an'analari tamil adabiyoti bilan bog'langan bo'lsa, ammo yozma shaklda yaratilgan eski tamilcha (cem-tamiz 'shen-tamij') asarlar asosan sangam davriga tegishli bo'lib, faqat milodiy davrining birinchi ming yillikning o'rtalariga tog'ri kelishi mumkin. Ular orasida ayrim shoxasarlari esa "Pattu pa:TTu" (eTTuttokai, Patin'eNkizakaNakku), Kur'ae kabi antologiya qo'shilgan holda hamda **Cilappatika:ram** va **maNimekolai** kabi yaxlit dostonlar melodning dastlabki asrlarida e'lon qilingan bo'lishi mumkin. Natijada, Oriylar hindibon tuprog'ida dravidlar bilan dastavval to'qnashuvga uchragan davrdan (ya'ni m. a. 2000 yillik o'rtalaridan) mazkur paytgacha tahminan 1,5 ming yildan iborat uzilish kuzatiladi.

Bundan tashqari o'ta qadimgi hind sivilizatsiyasini mujassam etuvchi Mohenjodaro va Xarappa madaniyatini dravidlar yaratgan deb isbotlashga qaratilgan sayyi harakatlar jumlasidan o'sha markazlardan topilgan yozuvlar ham ba'zi olimlar talqinida eski tamil tili bilan bog'langanligini ko'rsatish ham kuzatiladi. - E. Eras(Hetash N. Studies in Proto Indo – Mediterranean Culture, vol.I, Bombay,1953)

Bu asar N. Gurov ta'biriga ko'ra "protohind madaniyatini dravid xalqlari madaniyati bilan solishtirishdagi dastlabki tajriba" hisoblanadi. Bunda ushbu yozuvlarning tamil tilining qadimgi shakliga ham solishtirilgan.

S.K.Chatrjiy fikri ham shundan kelib chiqadiki, bu yozuv aslida qadimgi krit va kipr hamda elamitlar yozuvlari bilan o'xshashlikka egadir. Boz ustiga Mohenjo Daro va Xarappa yozuvini Sind-Panjob xati deb atagan holda uning tarkibida undosh xarflarni bildiruvchi alomatlar unli tovushlarni anglatuvchi alomatlar qo'shib yozilgan. Bu hodisa gupta, devanagri, bengal, grantha va boshqa turlardagi yozuvlar orqali braxmi alifbosidan kelib chiqadigan barcha yozuvlar uchun xosdir. Ya'ni shunisi ham diqqatga molikki, Sind-Panjob yozuvlari Mauriya davri bo'lmish m.a. 4-3 asrlarga tegishli braxmi alifbosiga ko'rinishi bilan juda ham o'xshaydi. Shularni nazarda tutganda, bu yozuvlar S.K. Chtrjiy fikriga qaraganda hind milliy yozuvi drahmi uchun asosiy poydevor kasb etgandirki, bu yozuvdan o'z navbatida so'ngroqda yozuvlar turlari kelib chiqqandi.

Endi umumiyashtirish maqsadi bilan butun manzarani tasavvur qiladigan bo'lsak, oriylar hindga kirib kelganda, Shimoliy Hindiston vodiylari dravid va avstraloidlar qabilalari tomonidan obod qilingan edi.

Birinchilari dasa- dasyu ("qullar va dushmanlar") deb atalib Shimoliy G'arbda va G'arbda hukmronlik qilgan bo'lsa, ikkinchilari markaziy o'lkalar bilan Sharqda aksariyatni tashkil etardilar. Janubdagi vaziyatdan hech qanday darak yo'q.

Dravidlarga xos bo'lgan shahar qurishlik kasb xunari ular sharofati bilan ancha rivojlangan edi. Oriylar singari ular chorvachilik ham qildilar. Olimlar tahminicha, ular tufayli hozirgi hind jamiyatida kashtachilik tizimining ildizlari ham kurtak ochib rivojlangan edi. Bundan tashqari ilohiyot tushunchasi Shiva va Umalar obrazlarida o'z aksini topgan holda tasvirlarda Shiva buyuk yog(yogi) va hayvonlar sohibi (pashipati) ilk bosqichlarda dravid tubiga bo'lib Shiva – Uma kulti (ibodati) Kichik Osiyoga tarqalgan Teshuba –Xepit (teshub xepit) va Attis-ma (Attis-ma) kultlariga muqobil bo'lgan deb aytiladi.

Har holda S.K.Chatterjiy tabiriga ko'ra avstraloid va dravidlar bir hil va jipslashgan jamiyat sifatida shakillanmagan edi.

Vaholanki oriy qabilalari Hindistonga tahti ravonli askarlar hamda qo'y-echki va qora molga ega bo'lib, grama (graama) nomli ko'chmanchi oilaviy va urug'-aymoq doiralarda birlashgan guruhlar shaklida kirib kelgan edilar. Ular o'zlarining antropomorf (odamsimon) mabudlarga sig'inib, bu mabudlar tabiat kuchlarini mujassam etgan holda bo'lib, ibodat jarayonidagi qurbonlik tartibi sifatida homa gulhanida yoqib taqdim etish uchun o'zlaridan eng qimmatbaho ne'matlar bo'lmish arpa unidan pishirilgan non, go'sht, sut, moy va soma (so'ma) sharbatini baxshida etishardi. O'sha davrgacha ular Kichik Osiyoda yashovchi xalqlar hamda Assuriya va Bobil aholisiga mansub diniy tasavvurlarni o'zlashtirib, jumladan, "Toshqin rivoyati" va h.k.larni o'zlariga olib olgan edilar. M-n, oriylarning Indra ma'budi bobilning Marduk nomli ma'budining bulutsimon ajdaho bilan kurashini aks ettiruvchi ba'zi alomatlarini ham eslatardi.

O'z navbatida dravidlar ayrim ma'lumotlarga ko'ra 'ot' tushunchasi bilan tanishganligi hozirgi dravid tillaridan tamil tilida **kutirai**, kannadada **kudure**, teluguda **guttamu** kabi so'zlarga asos bo'lgan **ghutra** yoki **ghotra** so'zini yaxshi bilishardi. Bundan sanskritga **gho'ta**, yangi hind oriy tillariga **ghoda** kabi shakllar rivojlanib chiqqan. Ammo minib yurish uchun ular aftidan ho'kizni egarlab ishlatganga o'xshaydilar. Ularning asosiy kundalik yumushlari dehqonchilik, podachilik va baliqchilik bo'lgan.

Ular o'z ma'budlariga sig'inib, gullar, sandal moyi va boshqa xushbo'y moddalar shaklida hindularning so'ngdagi rasmi bo'lgan **pu:ja**: singari ibodat jarayonida taqdim qilinadigan narsalarni tortiq qildilar.

Yana bir o'ziga xos farqi oriylarning ijtimoiy jamiyat tizimi ibtidoiy davrlardan boshlab patriarxal bo'lgan bo'lsa, dravidlarniki barcha alomatlarga qaraganda matriarxal bo'lgan.

Shunday qilib, oriylar nafaqat dravid tilli dasa-dasyu hamda avstroloidlar bo'lmish nishadalar bilan balki kirata deb nomlangan mo'g'ilsimon (mongoloid) qabilalar bo'lmish tibet-xitoy tilli shaxslar to'qnashganlar.

Bunday to'qnashuvlar ko'pincha urush shaklida kechgan bo'lib, oriy urug'larning birlashmalari (**san'gra:ma**) larni tuzishga hamda dasyular bilan jang qilish (dasyu-hatya:) ga ehtiyoj yuzaga kelardi.

SAVOLLAR:

1. 'Agglyutativ' tushunchasi qaysi tillarga to'g'ri keladi?
2. Dravidlarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Bularning bog'lanishlari protohind madaniyatida qay tarzda aksini topadi?
4. Mifologik va boshqa dalillarga tayangan holda nimalarni dravidlar tarixiga tadbiq etsa bo'ladi?
5. Madaniy jihatdan dravidlar oriylar bilan qanday munosabatda bo'lishgan?

ADABIYOTLAR:

1. Chatrjiy, S.K. Vvedeniye v indoariyskoye yazikoznaniye. M., 1977
2. Alekseyev, V.P. Antropologicheskiy sostav drevney Indii. V st. "Indiya v drevnosti." M., 1964
3. Barxudarov, A.S. Razvitiye Indoariyskix yazikov I drevneindiyskaya kulturnaya traditsiya. M., 1988

BESHINCHI MA'RUZA.

REJA:

1. Hind-oriylarga mansub janiyatning ijtimoiy tabaqalanishi.
2. Qadimgi hind-oriy tillari orasidagi yetakchi tafovutlar.
3. "Veda"lar va ular atrofida adabiyotlar yaratilishi muammolari.
4. Qadimgi hind-oriy tillarni aks ettiruvchi yozuvlar muammosi.
5. "Rigveda" tarkibiga xos genetik negizlar muammolari.

TAYANCH IBORALAR.

Visha	ardhamagadhiy	protobrahmiy
Pajanyya	alqov	yakshu
Kohinlar	kaliyuga	turvasha
Kunst,sprache	Mauryya	oriylashtirikgan
'Avesto' tili	kharoshthiy	Arjuna
surya vansha	chandravansha	Ishkvashu

Qadimgi hind-oriy jamiyatining ijtimoiy hayotiga tegishli tarixiy manbalarga muvofiq Hindistonga kirib kelishidan ilgari bular asosan qabilaviy holatda bo'lib, ko'chmanchi tarzda yashagan va podachilik bilan shug'ullanib kelgan o'zaro o'ta jipslashgan etnik guruhlardan iborat bo'lgan edilar.

Oriylar turg'unlikka o'tib borgan sari ularning turg'un bo'luvchi qismining aksariyati visha deb nomlangan. Pirovardda esa ular orasidagi harbiy zodagonlar **ra:janya** yoki **kshatriyalar** deb, donishmandlari esa brahmanlar (btahmana) deb atalgan. Zabt etilgan dasalar yoki qullarga, yoki ayanchli hayotga mahkum zahmatkash shudralarga aylandi.

Shunda ehtimolki, nooriy xalqlardan kelib chiqqan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi toifalar va zodagonlar asta-sekin oriylarga qo'shilib borib

ular kohinlari oriy ma'budlarini va xoma ya'ni olovga qurbonliklar qilish marosimlarni tan olgach brahmanlar toifasiga kiritilganlar.

Oriylar Hindistonga kelib turg'un bo'lib qolganlarida ular urug'-aymoqlarga bo'lingan holda hayot kechirar ekanlar ushbu ijtimoiy birlashmalar sheva lahjalari o'rtasidagi tafovutlar unchalik katta bo'lmaganga o'xshaydi. Ammo ularning ichida o'ziga xos bir sun'iy til **kuustsprache** shakllanib kelgan ediki, bu til o'sha davrdagi butin adabiyotni qamrab oluvchi tilovat va alqovlarni aks ettirardi. Ushbu til 'Rigveda' va 'Atxarvaveda' asarlarining tili hisoblanadi.

'Rigveda' tili xususida taniqli hind-ovruposhunos olim A. Meye shunday xulosaga kelganki, bu til hind-oriy areal ya'ni mintaqasining g'arbiy shevasiga asoslangan. Bunda eroniy tillar (qadimgi fors va Avesto tillari) kabi 'r' tovushi mavjud bo'lib, 'l' tovushi talaffuz etilmas edi, chunki ushbu ikkala hind-ovrupo tillardan kelib chiqqan tovushlar faqat 'r' bilan cheklanadi. Bundan tashqari bunda dh, bh, gh nafasli tovushlarining 'h' ga aylanib borishi kuzatilgan edi, jumladan, hind-eron tilidagi **yaza:madhai** 'ibodat qilamiz' degan shakl bu yerda **yaja:mahe:** bo'lib kelgan bo'lsa, avesto tilida esa **yaza:maide** bo'lib kelgan edi.

Vaholanki, S. K. Chatrjiy fikriga ko'ra 'r' va 'l' masalasi qadimgi hind-oriy tillarini bir-biridan farqlash uchun juda muhim tuyuladi. Bunga sabab shuki 'r' tovushning mavjud bo'lib 'l' ning yo'qligi faqat g'arbiy sheva ushun xosdir. Bunga aksincha turgan sharqqa tomon joylashgan shevalarda holat boshqacha bo'lgan. Jumladan, mumtoz Sanskrit va paliga asos bo'lgan shevalarda ham 'r' ham 'l' mavjud bo'lgan bo'lib, undan yanada sharqroqda joylashgan shevada faqat 'l' kuzatilib 'r' g'oib bo'lgan. Bu sheva oriylarning keyingi ikkinchi xujumi paytidan ilgari mamlakatning ichkarisiga, ya'ni hozirgi Uttar-pradesh va Bihar shtatlarining sharqiy qismiga siqib chiqarilgan bo'lsa kerak. U boshqacha aytganda Ashoka yozuvlarining sharqiy prakriti deb ataladi. Bu prakrit jaynizm ta'limoti asarlarining tili ardhamagadhiyning qadimgi ajdodi edi, qolaversa, eng keyingi so'nggi prakrit hisoblangan magadhiy. Bularning ikkalasida ham 'r' tovushi bo'lmasdan faqat 'l' talaffuz etilardi.

Adabiyot rivojlanishiga doir fikr yuritilganda, oriylar o'zlari bilan keltirgan alqovlar va boshqa poetik ijodlarni olib kelganlarida nooriy tilli shaxslar oriylarga qo'shilgach ularning shoirlari tayyor adabiy tilda she'rxonlik boshlaganlarida og'zaki ijod yanada kengayib rivojlanishini ko'rib uni nazorat etishni kohinlar o'z zimmalariga olib oladilar.

Shunda 'Veda'larning yaratilish davri haqida muammoga yondoshganda S.K. Chatrjiy fikri shundan iboratki, yozuv bo'lmagan taqdirda ularni tuzish jarayoni murakkablashardi. Shuning uchun oriy tillariga mavjud (nooriy) yozuvni moslashtirish hamda butun alqovlarni tartibga solish jarayonlari ularni to'rtta to'plamga kiritib yozib olish bir-biriga qo'shimcha

holda parallel ravishda kechgan degan xulosa qilinadi. ‘Veda’lar muallifi sifatida afsonaviy donishmand Vyasa tan olinadi. Bu shaxs ‘Mahabhorata’ va ‘Purana’larga ko’ra birinchi asar qahramonlari kuru va panduzodalarning to’ng’ich zamondoshi bo’lgan edi. Bu asarni davrlashtirish masalasi “Veda”larga qaraganda lo’ndaroq bo’lib, buning yaratilish davri m.a. 3101 yil, ya’ni Kaliyuga “Kali davri”ning boshlanishiga moslashtiriladi. Bundan tashqari ba’zi olimlar buni m.a. 15 asrga to’g’ri keltiradilar. Jumladan, ingliz olimi F. E. Parjiter, hind olimi X. Ch. Chaudhuri va jaynlar adabiyotiga asoslangan L.D. Barnet bunga tarafdor bo’ldilar. Boz ustiga, ularning fikriga asosan ‘Mahabharata’ qahramonlaridan Krishna va Parikshit m.a. 10 asrda ehtimolan dravidlarning nooriy qadimgi sind-panjob yozuvlari oriylar tillariga nisbatan qo’llanilishi va Mauryalar sulolasi m.a. IV-III asrlargacha bo’lgan davrda rivoj topgan braxmi yozuvidan ilgarigi muddat mobaynida shu yozuvlar o’z taraqqiyotining olti-yetti asrlik paytini ko’rgan bo’lishi mumkin.

Braxmiga kelganda, bu xat tizimi Sanskrit uchun ishlatilishini osonlashtirish tufayli takomillashtirilgan kirib olishi ham sakkiz yuz yildan ming yilgacha bo’lgan davrni bosib o’tishi lozimga o’xshardi. Bunga bois Ghatrjiy ta’biricha yozuvning ibtidoiy shakllari ancha nomukammal bo’lgan edi. M-n, m.a. oxirgi asrlarda va melodiy dastlabki asrlardagi Sanskrit tiliga yaqin turgan shimoli-g’arbiy prakrit uchun kharoshthiy xatini moslashtirish xodisasi, bu xat aslida finikiya yozuvining o’zgartirilgan ko’rinishi bo’lib chiqqan edi. Xullas, bu taqdirda m.a. 10 asrga mansub hindoriy yozuvlari o’z navbatida ‘protobraxmiy’ bo’lib (braxmiy bobosi), bu xat o’sha davrdagi vedalar tilini aks ettirish uchun bir dag’al usuldagi xat hisoblanishi lozim.

Endi o’sha davrdagi etnik guruhlar yoki elatlar xususida gapirganda, ‘Rigveda’ matnidagi Vasishtxa nomli donishmandning oriylar shohlaridan Sudasaning (bu shoh tritsu – trotsu urug’idan bo’lgan) oriy va nooriy qabilalar birlashmasiga qarshi olib borilgan urushi xususida berilgan tafsilotlardan quyidagi qabilalar nomlari ayon bo’ladi:

Turvasha, matsya, bxrigu, druxyu, paktxa, bxala:nas, alina, shiva, vishanin, vaykarna, anu, aja, shigru vayakshu. Taniqli hindshunos Xarit Krishna Dev aytishicha ‘yakshu’ va ‘shigru’ deb qadimgi misr qaydnomalarida ‘akayvasha’ va ‘shakarhsa’ nomlari ostida m.a. 1229 yillarda liviyalar bilan ittifoqchi bo’lib bostirib kirgan qabilalar nazarda tutiladi. ‘Turvasha’lar haqida esa uning taxminicha shunisi ma’lim bo’ladiki, bunda ‘tura’ va ‘vasha’ nomli ikki qabilaning nomlari birlashgan holda berilgan va ushbu nomlardan har biri ‘Vedalar’ matnlarida kuzatiladi.

Yuqoridagi ‘akayvasha’ bu Gomer tilga olgan axeyliklar bo’lishi mumkin.

Man shunday fakt;arga tayanib S. K Chatrjiy ‘Veda’larning yaratilishi taxminan m.a. 10 asrni belgilovchi nuqta sifatida taklif etadi.

Shunda 'Purana'lar an'anasini agar eslasak, bu an'ana o'ta qadimgi davrlarga tegishli oriylar kirib kelishidan ilgarigi dravid va ehtimol avstraloidlar shohlari va sulolalariga borib taqalishi taxmin qilinadi.

Oriylar kirib kelgandan so'ng bular oriylashtirilgan bo'lishi mumkin, chunki ular matnlarini prakrit va sanskritga o'girilganli ham ayondirki, ularni yaratgan xalqlar ham oriylashtirishga uchragan edi. Ya'ni o'ziga xos sintez xodisasi yuz bergandi. Bunday faktlar jahon tarixida ko'p bo'lib, masalan, mumtoz arxeolog Artur Evans fikricha u topgan Krit madaniyatiga mansub ko'p afsona va qahramonlar 'Illiada'da o'z aksini topgan ko'p qadimgi yunon miflarda kuzatilib kelinadi. Bu hodisa Egay dengizidagi orollar aholisi axeyliklar, donaylar va doriylar bo'lmish hind-ovrupoliklar qabilalari bilan qorishib uyg'unlashuviga tegishlidir. Bunday tahminning haqqoniyligi Edip, Persefona va ma'buda ovchi Artelida haqida bayon etuvchi minoy san'atining namunalari Yunonning o'zida topilgani bilan isbotlangan.

Xuddi shunday tarzda Yava orollarida yashovchilar m, 1 ming yilligi mabaynida hinduizm va buddizmlarni qabul etib, ularga tegishli ko'pchilik afsona va rivoyatlarga o'z hissalarini qo'shdilar. M-n, Arjunaga hizmat qiluvchi uchta malaylar. So'ngroqda islom dinini qabul etgach islom rivoyatlari mazkur rivoyatlarga qorishib bordi. M-n, Ular Shivaga sig'inishda davom etsalarda o'zlarini Odamoto avlodi sifatida yuritadigan bo'ldilar.

Shu singari qadimgi Misrda keng tarqalib ommabop bo'lgan Usir va Iset afsonasi yunon ruhida sug'orilgandan keyin Misrda hukmronlik qiluvchi yunon shohlar didiga yoqqan holda Oziris va Isida uslubida ko'rinib, bu afsona pirovardda Rimga ham ko'chib bordi.

Puranalar haqida esa shuni ta'kidlab o'tish kerakki, quyosh va oy sulolalar (Su:rya vam'sha va Chandra vam'sha) haqidagi ko'p afsonalar nooriy deb tan olinib so'ngda oriylashtirilgan deb tan olinishi lozim. Shunda palida Okka:ka shakli sanskritcha U:rsva:ku shakliga chig'ishtirilib puranalar an'anasiga ko'ra Quyosh sulolasining shohiga mansub nomi ancha qiziqarli ko'rinadi.

Boshqa tomondan qaraganda, yana bir masala 'Avesto'ning eng qadimgi qismi bo'lmish 'Gata'lar tili Zardushtga mansub qilinayotgan holda (m.a. VII asr?) hamda ahmoniylar yozuvlari (m.a. 4 asrdan tortib) tillari bilan 'Veda'lar tili orasidagi o'xshashlik ham ajablanarli ko'rinadiki, ular orasidagi davr masofasi unchalik ko'p bo'lmas kerak degan fikr tug'ilishi mumkin. Shunda 'Gata'lar va 'Veda'lar tillari xuddi egizaklardek tuyulishi turgan gapdir. Boz ustiga 'Veda'lar tilini m.a. 2 ming yillikning boshlarida turishi ham shubhali, chunki Mesopatamiya va Kichik Osiyolardan topilgan hujjatlarga ko'ra u paytdagi oriy tili hanuz yaxlit bo'lib xali eron va hindoriycha tarmoqlarga bo'linmagan edi.

Shunisi qizikki, eng eski matnlar ‘Veda’larning uch ming yil oldingi holatini saqlab turgan bo’lsada ularni faqat uzog’i bilan bir ming yil oldin ko’chirilganligi aniqdir. Ya’ni oriylar Hindga kirib kelganlarida yonlarida meros shaklida bir muncha alqovlarni hind-ovrupo shaklida olib kelganlari va o’z tillariga ega bo’lib kelganlari ham ishonarli. Hindistonning o’zida esa tilni avloddan avlodga tabiiy ravishda uzatilib kelishi asosan o’sha tartibni tilga o’rganish ob’yekti sifatidagi fanga yondashuv uchun tayanch bo’lib qolgan edi. Bunga bois so’zlashuv tili ‘Veda’lar tilidan uzilib ancha uzoqlashganligi va oriy tillarni nooriylar ham o’zlashtirib olganligidan kelib chiqadi. Shuning uchun matnlarga nazariy jihatdan yondashib unga imloviy o’zgarishlar kiritila boshlangan. Buni ko’zlab vedik she’riyat bilan shug’ullanuvchi olimlar tegishli e’tibor berib, nisbatan so’nggi Vedik imlo bilan ‘Veda’lar tilining ilk orfoepiyasi orasidagi uzilishga o’z e’tiborini qaratgan.

SAVOLLAR:

- 1. HIND-ORIYLAR JAMIYATIDA QANDAY O’ZGARISHLAR YUZ BERGAN?**
- 2.QHOTILLAR ARO DASTLABKI TAFOVUTLAR NIMADAN IBORAT BO’LGAN?**
- 3. QADIMGI YOZUVLAR TURLARIGA IZOH BERING .**
- 4. ‘VEDA’LAR ADABIYOTI HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?**
- 5.‘RIGVEDA’ VA ‘AVESTO’ TILLARI ORASIDAGI MUNOSABATLAR NIMADAN IBORAT?**

ADABIYOT:

- 1.Chatrji S.K. Vvedeniye v indoariyskoye yazikoznaniye, M., 1977**
- 2. Mukerdji R. Hindu sabhyata, Yangi Dehli, 1990, 1-130 betlari.**
- 3. Shastri M. Bhartiy arya bhashayeN, Dehli, 1978.**
- 4. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish.
(kompyuterda terilgan electron darslik).**

OLTINCHI MA’RUZA.

Ma’ruza rejasi:

1. Qadimgi hind-oriy tillarining mahalliy og'zaki-so'zlashuv ko'rinishlari.
2. Ular orasidagi til tafivutlari muammolariga xos fonetik qirralar.
3. Buddizm davridagi Hindistonda til vaziyatining xususiyatlari.
4. O'rta hind-oriy tillarining rivojlanishida jaynizm va buddizm qo'shgan hissalari.
5. Cxandas yoki 'xalq sanskrit tili' muammosi.

TAYANCH IBORALAR:

Videxa	vratyya	Budda
Magadx	rotasizm	'Upanishad'lar
Udichyya	Panjob	Panini
Madhya deshiyya	Chota Nagpur	laokika
Prachyya	chxandasa	Shalatura

Yuqorida fikr yuritilgan bayonlarga tayanib, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi tillarga oid bevosita manbalar tanqisligi bilan bog'langan ba'zi sabablarga ko'ra qadimgi hind-oriy xalqlarining hind diyoriga kirib kelib, u yerdagi xududlar bo'ylab yoyilib-tarqalib borishlariga ham to'g'ridan to'g'ri maxsus ma'lumotlar ixtiyorimizda bo'lmagani uchun bilvosita manbalarga ko'ra yuqoridagi manzara ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Endi navbat hind-oriy tillarining so'zlashu shavalariga. Bular mazkur *Kunstschprache* dan uzilib ketib sharqqa tomon yoyilib bora boshladilar. Jumladan, Budda Nepalda tug'ilib hozirgi Bihar va Sharqiy Uttar Pradeshlarda o'z ta'limotlarini e'lon qilib borganida, ular to Videxa (shimoliy Bixar) va Magadx (Janubiy Bixar) degan o'lkalargacha yetib borishdi. Ayni paytda ularda, xususan, sharqda salmoqli o'zgarishlar yuz berdi. M-n, m.a. 1000-600 yillarga mansub etiluvchi yozma yodgorliklarda o'sha davrga xos til vaziyati haqida ayrim ma'limotlar kuzatiladi.

Aftidan oriy tillari uch xil og'zaki ko'rinishda gavdalanadi, jumladan, 1) udichya, ya'ni shimoliy (yoki shimoliy g'arbiy), 2) Madhya deshiya ya'ni markaziy (so'zma so'z ma'nosi 'o'rtadagi o'lkaga

tegishli') 3) prachya(pra:cya) yoki sharqiy. Udichyadagi vaziyat haqida shunday deyilgan: **tasma:d udi:chya:m pra:jNa:tatara: va:g udyate: udaNcha u e'va yanti va:cam shikshitum; yo va: tata a:gacchati, tasya va: shushru:shanta iti** – 'Binobarin Udichyada juda mohirona so'zlashadi; u yerga odamlar til o'rgangani boradilar; u yerdan qaytib kelganlarning nutqini hamma tinglashga intiladi'.

Uchinchi ko'rinishdagi Prachya o'lkasining shevasi hozirgi Uttar-pradesh shtatining sharqiy qismi hamda ehtimolan Bixarda tarqalgan edi. Bu shevada vedik o't-olov ibodatini va brahminlarning diniy uyushmasini tan olmaydigan vratya degan ko'chmanchi qabilalar so'zlashardi. Oldingi ikki ko'rinishdagi shavalardan farqli o'laroq bular qo'shma undoshlar kabi oriy tillar uchun xos bo'lgan fonetik hodisalarni to'g'ri talaffuz qila olmadilar.

H-o. t. taraqqiyotining keyingi bosqichi bo'lmish prakritlar bosqichida prachya shevasi g'arbiy shevadadan farqli ravishda nafaqat yuqoridagi talaffuz tufayli, balki 'r' tovushining 'l' tovushiga aylanishi hamda 'r' yoki 'r,' tovushlaridan so'ng keluvchi tish oldi undoshlarining serebral tovushlarga aylanishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, **kr,ta ,artha, ardha** kabi so'zlar sharqiy shevasida **kaTa, aTTa** va **aDDha** shakllarga aylandilar. Vaholanki, Madhyadeshda serebrallashuv hodisasi yuz bermagani tufayli ular **kata(kita), attha va addha** shakllarida qo'llanardilar. Shimoliy shavada esa ushbu so'zlar uzoq vaqtga o'z shakllarini saqlab turib 'r' tovushi assimilyatsiya hodisasiga uchragan bo'lsa-da tish oldi tovushlar o'zgarmay qoldilar.

S. K. Chatrjiy o'z asari 'Bengal tilining kelib chiqishi va taraqqiyoti'da ko'rsatganidek, serebrallashuv asosan sharqiy shevadagi 'r' tovushining 'l' bilan almashinuviga bog'liq bo'lib chiqqan. Demak, hind-eron holatidan hind-oriy holatiga o'tish jarayonida 'r+t' kabi hind-ovrupo va hind-eron birikmasi 'rt' shaklida saqlandi, vaholanki 'l+t' birikmasi 'T'ga aylanib qoldi. M-n, hind-ovrupo shakllaridan **mr'to, bherter** – hind-eron holatida **mr'ta** va **bharta:r** shakllarida kelib hind-oriy holatida esa **mr'ta** va **bharta:** shakllarida kuzatiladi.

Sharqiy shevada hind-oriy 'r' asosan 'l' ga aylanini rotasizmi quyidagi misollarda ko'rsa bo'ladi:

Ra:ja: > la:ja:, ks'I:ra > khi:la. Shuning uchun 'Veda'lardagi **mr'ta** va **bharta:** so'zlari **ml'ta** va **bhalta:** ga aylanib pirovardida **maTa** va **bhaTTa** ga aylandilar. (sравни s protivopolojennim yavleniyem v shvedskom i norvejskom yazikax, gde pervonachalniye skandinavskiye 'rt' i 'rd' priobreli retrofleksnoye ili serebralnoye zvuchaniye T i D).

Shimoliy Hindistonning yassi-tekis rel'yefi tufayli xalqlarning g'arbdan sharqqa va teskarisiga ko'chib yurishlari uchun qulay bo'lib,

bir shevaga xos hodisalar boshqa shevaga o'tib borishlari oson bo'lardi. 'Veda'lar matnlari yozib olingan mahallarda sharqiy shevadani ba'zi shakllar ham bularga qo'shilib qolgan edi, jumladan:

vikaTa < vikr'ta dan, **nikaTa < nikr'ta** dan, **dan'Da < dandra** dan (yunon tilidagi bilan taqqoslang), **ks'ulla < ks'udla < ks'udra** dan.

Demak, h-o.t. o'zlarining taraqqiyotidagi ikkinchi bosqichiga qo'shma undoshlar soddalashuvi va boshqa o'zgarishlar jarayonida aynano'z arealining sharqiy qismiga qadam bosdi.

O'rmonda olov tez alanga olib yoyilgani singari oriylar tillari ham Panjobdan sharqqa qarab yoyilib bordi. Bu hududning nooriy aholisi bu tillarni qanchalik tez qabul qilib borgan bo'lsa oriylarning olg'a siljishi shunchalik osonlashardi. Bunday vaziyat, xususan, Chota Nagpur tepaligi va Assam o'lkalarida yuz berganligi haqida pali tilida bitilgan buddiy jatakalarida (ya'ni Budda qayta tug'ilishi haqidagi rivoyatlarda) o'sha yerlarda avstraloid tubiga mansub qadimgi qabila bo'lmish chandala xalqi tilga olingan edi. Bular o'z tillarida so'zlashar ekan, ammo mag'rur brahminlar tilini ham o'rganar edilar.

Budda davrida esa Shimoliy Hindistonda quyidagi Hind-oriy tillar ko'rinishlari yuritilar edi:

1. Uch xil oriy shevalar – a) udichya; b) madhyadeshiya; v) prachya.

Udichya o'sha paytda hanuz 'Veda'lar shevasiga yaqin turgan bo'lsa-da, prachya o'z rivojlanishida barchasidan ham oldinga o'z rivojlanishida barchasidan ham oldinga o'tib-uzilib ketgan edi. Bulardan tashqari, janubiy (da:ks'in'a:tya) shevasi ham mavjud ekanligi ham ehtimol bo'lib, mazkur tillarning nooriy tillar ta'siri ostida edi.

2. Chandasa (cha:ndasa) – brahmanlar maktablarida qadimdan-qadim hind-oriy tilining adabiy me'yoriy tili sifatida o'qitilgan 'Veda' she'riyatining eski shevasidir.

3. Chandas shevasining nisbatan yangi shakli sifatida, yohud Shimoliy (shimoliy g'arbiy) lahja bo'lmish udichyaning shakli bo'lib, bunda Madhyadesha va Prachya shevalarining elementlari ham qo'shilgan edi. Bu til brahmanlar aro o'qitish va aloqa ehtiyojlarini o'tovchi sayqallangan holdagi til bo'lgan edi. Bundan brahmanlar 'Veda'lar matnlariga sharhlar yozishda hamda o'zlarining dinshunoslik hamda falsafaga tegishli fikr-g'oyalarni bayon etishda foydalanishardi.

Bulardan tashqari uzoq yiroqlardagi qishloq va o'lkalarda ehtimol tubandagi tabaqalarixtiyorida bo'lgan dravid, avstraloid va Tibet-xitoy shevalari ham mavjud bo'lib, bular hind-oriy tillarga nisbatan ozchilikni tashkil etardilar.

Shunda prachya shevasi chandasadan ham va uning yangi sayqallangan shaklidan ham shunday uzoqlashib ketgan edi. Udichya o'lkasining aholisigacha bu shevadagi nutq notanish bo'lib tuyulganida,

Buddaning ikki shogirdi ularning ruhiy ustozini mansub ta'limotlar buzilgan sharqiy shevadani allomalar tili bo'lmish chandasaga tarjima etilishini taklif etganlar. Lekin bunga Buddha roziligini bermagan. U aytdiki, "bularni" har bir shaxs o'z ona tilida ('saka:ya miruttiya:') anglab olishi lozim.

Buddaning mazkur so'zlari o'ziga xos ahamiyatni kasb etgan edi.

Dastavval, bu hodisa adabiy almashinuvda og'zaki-so'zlashuv tillarni olib kirishga kichli turtki bo'ldi va, ikkinchidan, o'sha paytda tom ma'noda anglanmagan ma'naviy erkinlik sari inqilobiy omil sifatida o'zini ko'rsatdi desha bo'ladi. Tez kunlarda buddizm va jaynizm ta'sirida turli shevalarda adabiyotlar yaratilib, ushbu jarayon ishtirokchilari mahalliy tillarning adabiyotga olib kiritilishini chandasa yohud brahmanlar sanskritiga qarshi amalga oshirilishini ongli ravishda tushungan bo'lishlari kerak. Gap shundaki, chandasa 'Veda'lar udumlarini bajaruvchi ashaddiy brahmanlar bilan bog'langan holda o'zining ilgari aloqa vositasi o'z mohiyatini yuqotib borayotgan va oddiy xalq manfaatlarini aks ettira olmayotgan til tusiga kirib qolgan edi. S. K. Chatterjiy ta'biricha bu hodisada ikki mafkura orasidagi to'qnashuv ham o'z aksini topgan edi, chunki brahmanlar cheklangan va saralangan doiralar uchungina Upanishadlar (ya'ni, "ustoz oyog'i ostida o'tirib tinglash") falsafasini ishlab chiqayotgan edilar.

Brahmanlar baxtiga hamda ularning tili tole'iga muvofiq Hindistonning shimoliy-g'arbida buyuk tilshunos Panini paydo bo'lib, uning vatani – yurtidagi so'zlashuv shevalari fonetik va grammatik jihatdan chxandasa naqadar o'xshagan holda uni shu tilning umumxalq (laukika) so'zlashuv shakli tariqasida tan olsa bo'lardi. Panini shimoliy-g'arbdagi udichyadagi Shalatura qishlog'ida (bu hozirgi Pokistonning Attok shahriga yaqin Qobul va Hind daryolari tutashuvida joylashgan edi). Ta'limga ega u takshashilarda bo'lgan edi. Uning grammatikasida qadimgi hind-oriy tilining taraqqiyotidagi uchinchi bosqich bo'lmish 'Rigveda' dagi Kunstschrache keyingi klassik sanskritning me'yoriy qoidalarini bayon qilib chiqqan edi. Bu til udichyaning so'zlashuv shevasiga asoslanganligi tufayli uni butun hindistondagi brahmanlar olqishlab qarshi olishdi.

SAVOLLAR:

1. Qadimgi Hindistonda h-o.t. mahalliy so'zlashuv shakllari haqida izoh bering.
2. O'sha davrda qanday tovush o'zgarishlari kuzatilardi?

3. **Budda ta'limoti paytidagi hind tillariga tavsif bering.**
4. **Ushbu jarayondagi ijtimoiy-diniy va boshqa harakatlar qanday tus olgan?**
5. **'Chandas' tushunchasiga izoh bering.**

Adabiyotlar:

1. **Chatterjiy. S.K. Vvedeniye v indoariyskoye yazikoznaniye, M., 1977**
2. **Beskrovniy. V. M. o roli sanskrita v razvitii novoiindiyskix literaturnix yazikov-sb. Sovremenniy literaturniy yaziki stran Azii, M., 1965. st-62-81.**
3. **Zaxar'in. B. A. Vvedeniye v istoriyu yazika hindi, MTU, M., 1978, st-30-45.**
4. **O.N. Shomatov Janubiy Osiyo Tillariga kirish (kompyuterda terilgan electron darsligi sifatidagi matnlar.)**